


## 2021- yil uchun Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilda Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 23 349,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yil bilan taqqoslaganda 7,0 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 117,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 3,2 % ga yetdi.




**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da</i>
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>18 575,1</b>	<b>23 349,2</b>	<b>107,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	18 217,7	22 795,0	107,0
mahsulotlarga sof soliqlar	357,4	554,2	107,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>18 217,7</b>	<b>22 795,0</b>	<b>107,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>9 769,9</b>	<b>12 183,5</b>	<b>104,2</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>3 240,0</b>	<b>4 224,8</b>	<b>112,2</b>
sanoat	2 041,7	2 873,7	110,2
qurilish	1 198,3	1 351,1	115,6
<b>xizmatlar</b>	<b>5 207,8</b>	<b>6 386,7</b>	<b>109,2</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 016,4	1 281,8	112,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	634,0	826,8	120,5
boshqa xizmat tarmoqlari	3 557,4	4 278,1	106,3

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 363,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,8 % ga yuqoridir.

### 2020-2021- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,4% ini tashkil etdi.



Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 53,4 % ni, sanoat tarmog'i 12,6 % ni, qurilish 5,9 % ni va xizmatlar sohasi 28,1 % ni tashkil qildi.



**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)

	2020- yil	2021- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,1	97,6
mahsulotlarga sof soliqlar	1,9	2,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>53,6</b>	<b>53,4</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>17,8</b>	<b>18,5</b>
sanoat	11,2	12,6
qurilish	6,6	5,9
<b>xizmatlar</b>	<b>28,6</b>	<b>28,1</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,6	5,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,5	3,6
boshqa xizmat tarmoqlari	19,5	18,9

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**

YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 53,4 %), sanoatda – 110,2 % (12,6 %), qurilishda – 115,6 % (5,9 %), xizmatlar sohasida – 109,2% ni (28,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,4 % (5,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 120,5 % (3,6%), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,3 % dan (18,9 %) iborat bo'ldi.


## 2020-2021-yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)






YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,2 f.p. (2020- yilda – 1,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,1 f.p. (2020- yilda – 1,8 f.p.) va qurilish tarmog'i – 1,0 f.p. (2020- yilda – 0,1 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,6 f.p. (2020- yilda – 0,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2020- yilda – 0,5 f.p.)ga ko'paydi.

**2021- yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi**  
(jamiga nisbatan % da)



2021- yilda YAHM deflyatori indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 117,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 127,7 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 119,7 % qayd etildi.

## 2020-2021-yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



## 2021- yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 81,2 % ni tashkil qildi (2020- yilda – 83,0 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

